




O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI
MAQOMI BERILGANLIGINING
35 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN

“FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”

mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA JURNALISTIKA KAFEDRASI

**FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
MUAMMO VA YECHIM**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman
materiallari**

Buxoro, 21-oktabr, 2024-yil

“Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro, 2024. – 136 b.

Mas’ul muharrir

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Abuzalova M.K.**

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Yuldasheva D.N.**

Taqrizchilar

**filologiya fanlari doktori (DSc),
professor Rajabov D.Z.**

**filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Asadov T.H.**

**To‘plovchi va nashrga
tayyorlovchilar**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Ahmadova U.Sh.**

**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent Hamroyeva M.R.**

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqola va tezislarining mazmuni, ularda keltirilgan ma’lumotlar, bildirilgan fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Ijodkorlar erkin o'xshatishlarni o'z badiiy asarlarini yanada ta'sirli, obrazli va ifodali qilish maqsadida yaratadilar. Erkin o'xshatishlarni o'rganish bilan muallifning dunyoqarashi, yuksak saviyasini ham kuzatishimizga keng sharoit yaraladi. Ular nutqda yangilik yaratish, she'riy tilda esa tuyg'ular va kechinmalarni chuqurroq va rang-barang ifodalashda qo'l keladi.

Adabiyotlar

1. Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луг'ати. –Т.: Маънавият, 2013.
2. Mahmudov N. va b. Ona tili 11-sinf o'quvchilari uchun darslik. –Т., 2018.
3. Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатишлар. –Т., 1975.
4. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. –Т.: Фан, 1977.
5. Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадий текстнинг лингвистик таҳлили. –Т.: Ўқитувчи, 1990.
6. Шодиева Д.Ш. Муҳаммад Юсуф шеърининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. ...дис. автореф. – Т., 2007.
7. Yuldasheva D.N. Sukut – nutqiy muloqot komponenti. Monografiya.– Buxoro: Bukhara hamd print, 2024.– 176 b.
8. Avliyoqulova L. PSIXOLOGLAR NUTQIGA XOS TIBBIY BIRLIK LARNING AYRIM LISONIY XUSUSIYATLARI //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 286-290.

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA FE'LLI BIRIKMALARNING NUTQIY VOQELANISHI

Nazarova S.A.
BuxDU professori, f.f.n.
Yoqubova Sh.Y.
BuxDU o'qituvchisi

Annotatsiya: Tilning vazifaviy uslublariga taalluqli bo'lgan matnlardan farqli o'laroq, badiiy adabiyotga oid matnlarda til vositalari juda keng ko'lamda qo'llanadi. Yozuvchi obraz xarakterini ochish uchun til sistemasida mavjud bo'lgan barcha vositalardan unumli va maqsadga muvofiq holda o'rinli foydalanishga harakat qiladi. Shunday ekan, fe'lli birikmalarning nutqiy voqelanishini o'rganish maqsadi badiiy nutq va uning yozma shakli bo'lgan badiiy matnga murojaat qilishni taqozo etadi. Birinchi navbatda, badiiy nutq va uning vositalari masalasi tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: *fe'lli birikma, badiiy nutq, lisoniy sintaktik qolip, trop, badiiy tasvir vositalari, nutqiy voqelanish*

Ushbu maqolada o'zbek tilining badiiy qudrati va imkoniyatlarini o'z asarlarida namoyon etgan adib Abdulla Qahhor hikoyalarida voqelashgan fe'lli birikmalar tahlil qilindi. Ijodkorning ba'zi hikoyalari matni badiiy nutqning ko'rinishi sifatida tanlab olindi. [I ~ F] qurilishli so'z birikmalarining badiiy nutqda voqelanishini o'rganish maqsadida A.Qahhorning hikoyalariga murojaat qilindi. A.Qahhorning "Maston" hikoyasi matni bilan tanishish jarayonida fe'lli birikmalarning turli ko'rinishlari voqelashganligiga guvoh bo'ldik. [I ~ F] qurilishli so'z birikmalari quyidagi nutq parchalarida qanday ma'nolarni yuzaga chiqarganligini kuzataylik:

1. *Agar shamol qo'zg'alsa, qum **tiriklay ko'madi*** [Qahhor, Абдулла, 262].
2. *Maston yuki og'ir aravani tortib borayotgan otday oyoqlarini tirab yuqoriga intilar, Turg'unoy esa engashib ikki kaftini tizzasiga qo'yib **zo'rg'a-zo'rg'a qadam tashlar edi*** [Qahhor, Абдулла, 263].
3. *Turg'unoy oxiri bosgan oyog'ini ko'tara olmay to'xtab, Mastonning yelkasiga boshini qo'ydi va **piq-piq yig'ladi*** [Qahhor, Абдулла, 265].

Hikoyadan olingan parchalarda *tiriklay ko'mmoq, zo'rg'a-zo'rg'a qadam tashlamoq, piq-piq yig'lamoq* kabi so'z birikmalari qo'llangan. Bu so'z birikmalari sintaktik qurilish tabiatiga ko'ra umumiy o'xshash bo'lib, mazkur nutqiy birliklar [I~F]=SB umumiy qolipining hosilalaridir. Bu birikmalar tobe so'zning leksik-morfologik xususiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Shu bilan birga,

matnda voqelashgan fe'lli birikmalar tobe va hokimning birikish usulini leksik-morfologik jihatdan belgilovchi turli oraliq qoliplarga tegishli. Negaki, fe'lli birikmalarning nutqiy-uslubiy qo'llanilishida so'zlarning leksik-semantik va morfologik imkoniyatlari lisoniy omillar sifatida muhim bo'lib, hokim vaziyatdagi fe'llar ifodalayotgan harakat-holatning belgi-xususiyatini qanday lisoniy imkoniyatlar asosida yuzaga chiqayotganini aniqlashga yordam beradi. Jumladan, *tiriklay ko'mmoq*, *zo'rg'a-zo'rg'a qadam tashlamoq* birikmalari [R~F]=SB oraliq qolipi asosida, *piq-piq yig'lamoq* birikmasi [T~F]=SB oraliq shakli asosida shakllangan.

Agar *shamol qo'zg'alsa*, *qum tiriklay ko'madi* matnida ko'mmoq fe'li mayda zarralar bilan o'rab olmoq, chuqurni to'ldirmoq, uyum hosil qilmoq ma'nolaridan qum zarralari bilan o'rab olmoq va uyum hosil qilmoq harakati yuzaga chiqarish vazifasini bajaradi. Bu harakat fe'li shunchaki emas, *tiriklay* ravishi bilan birikkan holda, kuchli ifoda vositasiga aylangan. Chunki *tiriklay ko'mmoq* birikmasi *butunlay ko'mmoq* so'z birikmasiga qaraganda kuchli ta'sirga ega va qumning ko'chish hodisasini badiiy tasvirda jonlantiradi. Nafaqat jonli tasvirlashga, balki obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Bu so'z birikmasi [R~F]=SB oraliq qolipi asosida voqelashar ekan, ko'mish harakatining tarzini, ya'ni muayyan belgisini anglatadi va umumiy [belgi-harakat] ma'nosiga tegishli xususiy ma'no nutqda reallashganligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, badiiy matnda [R~F]=SB oraliq qolipining *zo'rg'a-zo'rg'a qadam tashlamoq* hosilasi va [T~F]=SB oraliq qolipiga tegishli *piq-piq yig'lamoq* birikmasi qo'llangan. Bu hosilalarning mazmuniga e'tibor qilinsa, *zo'rg'a-zo'rg'a qadam tashlamoq* birikmasi orqali oyoq harakati tarziga xos belgi ma'nosi ifodalanayotganligi, *piq-piq yig'lamoq* birikmasi esa ruhiy holatning tasviriy belgisini anglatayotganligi ma'lum bo'ladi. Shu bilan birga, matnda qo'llangan *zo'rg'a-zo'rg'a qadam tashlamoq*, *piq-piq yig'lamoq* birikmalari asar qahramoni xarakteriga xos xususiyatni aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Badiiy matnda Turg'unoyning hayot sinovlaridan qo'rqishi, zaifligi *piq-piq yig'lamoq* birikmasi orqali, jismonan qiynalayotganligi (oyog'i shikastlanganligi) *zo'rg'a-zo'rg'a qadam tashlamoq* birikmasi yordamida tasvirlangan. Asar matnida bu birikmalar Turg'unoyning tabiatidan kelib chiqib shakllanganligi anglashiladi. Shuningdek, mazkur birikmalar Turg'unoyning xarakterini Mastonning tirishqoqligi, hayot qiyinchiliklari oldida taslim bo'lmasligi kabi xarakter xususiyatlari bilan qiyoslash imkonini beradi. Fe'lli birikmalarning mazkur ko'rinishlari yozuvchining qahramonlar ruhiy holati hamda xarakterini yorqin gavdalantirish va ularning individual xususiyatlarini ko'rsatish, asar qahramonlarining hayotiylikiga ishonitirish maqsadini aniq aks ettirgan. Aytish joizki, [R~F]=SB, [T~F]=SB oraliq qoliplarining hosilalari harakatning ravishdan anglashilgan tarz belgisi va holatning tasviriy belgisini ifodalash bilan birga qahramon xarakterini individuallashtirishga xizmat qiladi.

[I~F] qurilishli so'z birikmalarining badiiy matnda qahramon xarakterini individuallashtirishga xizmat qilish vazifasi birgina dalil bilan isbotlanmaydi. Bu fikrning isboti uchun badiiy nutqdan [I~F] qurilishli birikmalar qo'llangan yuzlab dalillarni keltirish mumkin. Bu dalillarni to'liq o'rganish mushkul, shuning uchun ulardan ayrimlarini tahlil qilamiz. Masalan, A.Qahhorning "Boshsiz odam" hikoyasida *ochiq aytmoq* birikmasi, "Maston" hikoyasida esa *shuncha yig'latmoq*, *shuncha og'ritmoq* birikmalari voqelashgan matnlarga e'tibor qarataylik:

1. *Bir kuni u betini qattiq qilib, kuyovga ochiq aytdi.*

2. – *Ering seni shuncha yig'latgani yo'qmi? Joningni shuncha og'ritmasmidi?*

Matnlarda voqelashgan *ochiq aytmoq*, *shuncha yig'latmoq*, *shuncha og'ritmoq* kabi so'z birikmalarida asar qahramonlarining harakati va holatiga xos xususiyatlar tasvirlangan. Birinchi matnda *ochiq aytmoq* [Sf ~ F]=SB oraliq qolipi hosilasi sifatida qahramonning nutqi bilan bog'liq harakat va bu harakatining xususiyatini bildiradi. Ikkinchi matnda esa Maston (asar qahramoni) tomonidan aytilgan *shuncha yig'latmoq*, *shuncha og'ritmoq* hosilalari voqelashgan bo'lib, ular [Olm ~ F]=SB oraliq qolipi asosida yuzaga chiqqan. Matnda bu birikmalar inson ruhiy va jismoniy holatini ifodalashga xizmat qiladi. Holat fe'llari ko'rsatish olmoshlari bilan birikib, *yig'lamoq* va *og'rimoq* holatlarining miqdoriy belgisini, ya'ni ushbu ruhiy va jismoniy holatlarning takrorlanganligi hamda uzoq davom etganligini bildiradi. Ko'rinadiki, muallif ta'sirchanlikni kuchaytirish uchun miqdor belgisini aniq ifodalovchi sifat yoki ravishlardan emas, balki holatning

davomiyligiga ishora qiluvchi va shu asosda miqdoriy belgini ifodalovchi olmoshlardan ham foydalangan.

Badiiy nutqning imkoniyatlari shu darajada kengki, unda [ism-fe'l] qurilishli soʻz birikmalarining turli xil koʻrinishlari muayyan nutqiy maʼnoni ifodalash vazifasi tufayli yuzaga chiqadi. Demak, badiiy nutqda boshqa oraliq qoliplar va ularning nutqiy mahsuli voqelasha oladi. Feʼlli soʻz birikmalarining badiiy nutqda qoʻllanishini koʻrib oʻtilgan dalillar bilan cheklab boʻlmaydi. [I~F] qurilishli soʻz birikmalarining badiiy nutqda qoʻllanish imkoniyatlari biz tasavvur qilgan darajadan katta va kengroq. [I ~ F] qurilishli birikmalarning badiiy nutqda voqelanish imkoniyatlarini oʻrganish ehtiyoji dalillarni izlash va tahlil qilishda davom etishni talab qiladi.

Feʼlli birikmalarga xos uslubiy imkoniyatlarni aniqlash jarayonida kuzatganimiz *ochiq aytmoq, tiriklay koʻmmoq, zoʻrgʻa-zoʻrgʻa qadam tashlamoq, shuncha yigʻlatmoq, shuncha ogʻritmoq, piq-piq yigʻlamoq* kabi hosilalar harakat va holatning muayyan belgisini bildiradi. Bunday feʼlli birikmalar badiiy matnlarda troplarni shakllantiradi. Shu bilan birga, bu birikmalar badiiy nutqda asar qahramonlarining xatti-harakati, ruhiy va jismoniy holatini aniq va jonli tasvirlash vositasiga aylanadi. Bir qarashda oddiy koʻringan bu birikmalar Maston, Turgʻunoy, Turobjon, Haydar ota, Qobil bobo, Hojimisirojdek shaxslarning badiiy portretini yaratishda foydalaniladigan tasvir vositalari sifatida tilning ifodaviylik vazifasi badiiy nutqda amalga oshganligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar

1. Qahhor, Абдулла. Асарлар: 5 жилдлик. 1-жилд. Сароб. Роман. Никоялар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 336 б. – В. 262.
2. Khojiev, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. TJE-Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822.
3. Yokubova, S. Y. (2023). Oʻzbekona gap qurilishida feʼlning tutgan oʻrni//Educational Research in Universal Sciences, 2(11 SPECIAL), 421-426.
4. Yokubova, S. Y., & Usmonova, M. B. (2023). Obyektlı birikmalarning qurilish qoliplari xususida// Prospects and main trends in modern science, 1(5), 46-50.
5. Yusufvna, Y. S. (2022). Poetik nutqda maʼno koʻchish yoʻllari//Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali, 674-677

SOʻZ KOʻCHMA MAʼNOLARI USTIDA ISHLASHNING INNOVATSION USULLARI

Nuritdinova Sh.S.,
BuxDU oʻqituvchisi,
Raximova N. B.,
BuxDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada soʻzlarning oʻz va koʻchma maʼnolari, maktab oʻquvchilariga soʻz maʼnolari haqida tushuncha berish yoʻllari, maktab oʻquvchilarining nutqidagi ekspressivlikni oshirish haqida nazariyalar berilgan.

Kalit soʻzlar: *soʻz, soʻz maʼnolari, oʻz maʼno, koʻchma maʼno, birikma, soʻz birikmasi*

Insoniyat mavjud ekan albatta muloqot qiladi, fikr almashadi. Buning uchun tabiiyki soʻzlardan foydalanadi. Shunda savol tugʻiladi aslida soʻz nima? Soʻz- narsa va hodisalarning maʼnosini ifoda etuvchi, jamiyat aʼzolari tomonidan birdek tushuniladigan, grammatik shakllangan til birligi hisoblanadi. Soʻz maʼno jihatdan ikki turga ajraladi: oʻz va koʻchma maʼno. Soʻzning oʻz maʼnosi - soʻz matndan tashqarida alohida, yakka holatida ham matn ichida boshqa soʻzlar bilan aloqada kelganda ham bir maʼnoni anglatadi bu oʻz maʼnoli soʻz hisoblanadi. Koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻz esa matn ichida kelganda yakka, alohida foydalanilgandagi maʼnosidan farq qilsa bu koʻchma maʼnoda qoʻllangan soʻzdir. Misol uchun: 4-sinf ona tili darsligida oʻz va koʻchma maʼnodagi soʻz birikmalari ikki ustunchaga ajratamiz:

1) oʻz maʼno
odamning oyogʻi

2) koʻchma maʼno
karavotning oyogʻi

MUNDARIJA

RASMIY OCHILISH	3
Xamidov Obidjon Xafizovich. TIL – MILLAT KO‘ZGUSI, MILLAT QUYOSHI	3
Amonov A.A. TIL – MA’NAVIYAT KO‘ZGUSI.....	4
Rajabov D.Z. DAVLAT TILIGA EHTIROM.....	5
Axmedov A.R. TIL MILLAT G‘URURI	6
Ramilya Yarullina Yıldırım. TÜRKİYE’DE TÜRK DÜNYASI EDEBIYATLARIYLA İLGİLİ ÇALIŞMALAR ÜZERİNE KISA BİR DEĞERLENDİRME.....	7
Yuldasheva Dilorom Nigmatovna. O‘ZBEGIM TILIDAGI MILLIY XOTIRA O‘LMASIN.....	10
Toirova Guli Ibragimovna, Babayarov Maxmud Xamitovich. Tilimiz bayrami yil 12 oy bo‘lsin yoxud o‘zbek tili rivoji va takomili yo‘lida ko‘lamli faoliyat... ..	13
To‘xsanov Q.R. O‘ZAGIMIZNING, O‘ZLIGIMIZNING BOSH BELGISI... ..	17

1-SHU‘BA. ZAMONAVIY O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING NAZARIY

MASALALARI	19
Abuzalova M.Q. TIL – MILLIY MA’NAVIYATIMIZ BULOG‘I.....	19
Ahmadova U. Sh. PERIFRAZALARNING PRAGMATIK XUSUSIYATI	22
Ahmedov A.R. AREAL LINGVISTIKANING METODOLOGIK VA METODIK ASOSLARI.....	24
Alimova S. S. OT SO‘Z TURKUMINI O‘RGANISHDA AYUB G‘ULOMOV ILMIY TADQIQOTLARINING AHAMIYATI	26
Avliyoqulova L. B. SOHA LINGVISTIKASINI RIVOJLANTIRISH – DAVR TALABI	28
Axmatova I. H. TOPONIMIK TADQIQOTLARNI MAVZU GURUHLARIGA KO‘RA O‘RGANISH	31
Barnoyeva Z. G‘AZZOLIY FIKRLARGA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV	33
Berdiyev Husan Xolnazarovich. TIL TA’LIMIDA UMUMFILOLOGIK MANBALARNING O‘RNI	36
Jo‘rayeva Z. GENDERDA ERKAKLAR NUTQINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI: STEREOTIPLAR VA FARQLAR.....	37
Mardonova S. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINXRON VA DIAXRON SO‘Z YASALISHI	39
Oripova P. V., Toirova G. I. MINNATDORCHILIK SARKAZM SIFATIDA.....	42
Sattorova M. Sh. PAREMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TASNIFI.....	45
Sayidova G.Y. TILIMIZ RIVOJIGA TO‘SQINLIK QILAYOTGAN BA’ZI MUAMMOLAR... ..	49
Toirova G.I., Baxshilloeva G.V. O‘ZBEK DIALEKTLARI LEKSIK MA’LUMOTLAR BAZASINI YARATISHNING AMALIY BOSQICHLARI.....	52
Xayrulloeva G. F. MODAL SO‘ZLAR HAQIDA AYRIM FIKRLAR	55
Yuldasheva D. N., Umarova Dildor Faxriddinovna. DISKURS VA NOVERBAL VOSITA.....	58

2-SHU‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINI O‘QITISHDA INNOVATSIYA HAMDA INTEGRATSIYA.....

INTEGRATSIYA.....	60
Adizova Nilufar Istamovna. TURIZM SO‘ZLARI HAQIDA.....	60
Ahmadova U. Sh., Barotova S.M. BADIY USLUBDA PERIFRAZALAR.....	64
Ahmadova U. Sh., Shuhratova Y. Sh. DEHQONCHILIK SOHASIDA PERIFRAZALAR	66
Ahmedov A. R., Reimbergenova J.Sh. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI FONETIKASI.....	70
Azimova A. O‘. TOSHPO‘LAT AHMAD SHE’RIYATIDA AYRIM CHEGARALANGAN QATLAM SO‘ZLARI HAQIDA	72
Babayarov M. X. SPORT SOHASIDA PERIFRAZALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATI	74
Ermamatova M. I. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA INNOVATSIYA HAMDA INTEGRATSIYA	76
Hamidova M. G‘. “QORAKO‘Z MAJNUN” HIKOYASIDA LINGVOPSIXOLOGIK HOLAT TASVIRI.....	78

Hamroyeva M. R., Hamidova D. M. ABDULLA QAHHOR ASARLARINING BADIYIY TILI TAHLILIDAN	82
Hamroyeva M.R. ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARI UCHUN O'QUV TOPSHIRIQLARI TUZISHDA INNOVATSION YONDASHUV	84
Hikmatova G. O'QUVCHILAR NUTQIDA SO'Z-GAPLAR ETIKASI	85
Latifova M.Y. MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATIDA ERKIN O'XSHATISHLAR	87
Nazarova S.A., Yoqubova Sh.Y. ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA FE'LLI BIRIKMALARNING NUTQIY VOQELANISHI	89
Nuritdinova Sh.S., Raximova N. B. SO'Z KO'CHMA MA'NOLARI USTIDA ISHLASHNING INNOVATSION USULLARI	91
Primov Sh. M. KICHIK HAJVIY JANRLAR TILI VA USLUBI	94
Raimova A. "DUNYONING ISHLARI" ASARIDAGI KO'CHMA MA'NODAGI SO'ZLAR VA ULARNING BADIY AHAMIYATI	98
Raxmonqulova M. T. KONSEPTOSFERANING DUNYO KOGNITIV TASVIRI BILAN ALOQADORLIGI	101
Samandarova G. Y. RUS XALQ MAQOLLARIDA SONLAR	102
To'xtayev Sh. F. TOG'AY MURODNING "OTAMDAN QOLGAN DALALAR" ASARI BADIY OBRAZLARI TAHLILI	105
Xojiyeva M.Y. O'ZBEK TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	107
Xoldorova Kh. THE RELEVENCE OF THE STUDY OF THE FIELD OF "TOURISM" IN MODERN LINGUISTICS	109
Юсупова А. Ш., Хамроева М. Р. МЕТОДОЛОГИЧЕСКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ АНТРОПОНИМИЧЕСКИХ ФОРМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ТАХИРА МАЛИКА	111

3-SHU'BA. SOHA LUG 'ATLARINI TUZISH VA TERMINOLOGIYA

MASALALARI

114

Asadov T. H. O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATIDA ORALIQ SO'ZLAR IFODASI	114
Astanova G. A. TARJIMA LUG'ATLAR YARATISH MASALALARGA DOIR	116
Jamilova B.S. AXBORIY MATNLARDA O'ZBEK TILINING SOFLIGI MUAMMOSI	120
Navro'zova M. G'.TERMIN, ATAMA VA SO'Z O'RTASIDAGI MUNOSABAT	122
Rajabov D.Z. QO'SHIQ VA UNING ETIMOLOGIK IZOHI	125
Sharipova M. J., Bafoyeva D. E. QARINDOSHLIK MAQOLLARIDA GETERONIMIK MUNOSABAT	127
Kadirov Boburjon Muhammadganiyevich. SHARQIY YEVROPA HAMDA MARKAZIY OSIYO MITAQALARIDAGI HAJVIY JANRLARNING KELIB CHIQISHI	130